

**“OILA VA GENDER” ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NEMATOVA DILFUZAXON TO‘LANBOEVNA

**O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING SOTSIAL
OMILLARI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/S84 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matibaev Taspolat Baltabaevich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umarov Abdusalom Adilovich
Sotsiologiya fanlari doktori, professor
Muhtorov Azamat
Falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Rhd.21/30.10.2020. ped/s.127.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “ _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko‘chasi, 51-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya bilan “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko‘chasi, 51-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “ _____ ” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “ _____ ” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

B.B.Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida yashayotgan aholining ko'pchilik qismi uchun birlamchi va arzon turmush sharoitlarini davlat tomonidan ta'minlay olmaslik kambag'allikning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining qariyb yarmi 3,4 milliard kishi hamon asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun kurashish, ularning kundalik minimal ehtiyojlarini qondirish summasi 5.50 AQSh dollarini tashkil qilmoqda. Hozirgi kunda 2 dollardan kam daromadga ega dunyodagi deyarli 2 milliard kambag'al kishilar tashkil qilib, dunyo aholisining 35.9% foizi kambag'al, 19% foizi esa o'ta qashshoq xisoblanadi¹. Shu boisdan ham kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida sotsiologik tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kambag'allikni o'lchash mezonlari, kambag'allik chegaralarini belgilash va uni qisqartirish masalalarini ilmiy markazlar va universitetlar tomonidan tadqiqotlar olib bormoqda. Ularda qashshoqlik va unga bog'liq tengsizliklarni hal qilish masalasi, hayot sikli davomida kambag'allik va uy xo'jaliklari tarkibidagi gender farqlanish, kambag'allik va sog'liq bo'yicha tanlangan vaziyatning umumiy ko'rinishi, holati va qamrab olishga oid masalalarni, kambag'allik hamda migratsiyaning obyektiv va subektiv aloqadorlik masalalarini tizimli hal etish va mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini ilgari surmoqdalar.

Yangi O'zbekistonda aholini ta'limga qamrab olish, salomatligini ta'minlash, yangi ish joylarini ochish orqali aholi bandligini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali kam ta'minlangan va kambag'al aholi qatlami sonini qisqartirish va aholi farovonligini ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. "Aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va ishsiz fuqarolarni davlat hisobidan malakali kasb-hunarga o'qitish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ehtiyojmand aholini manzilli qo'llab-quvvatlash orqali 2026 yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish ko'zda tutilmoqda"². Kambag'allikni oldini olish kelajak avlodlarning jismoniy, mehnat va intellektual salohiyatini rivojlantirish nuqtai-nazaridan kelib chiqib, kambag'allikni qisqartirishning tashkiliy mexanizmlarini tizimli tartibga solish va takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirishning sotsial omillarini aniqlash uchun sotsiologik ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim- ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi PF-5667-son "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga

¹ Qarang: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasining 2020 yildagi hisoboti. URL: <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/home/countryinfo>

² Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4743>

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" va 2022 yil 1 martdagi PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020 yil 4 avgustdagi PQ-4797-son "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish"ning ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aholi turmush darajasini barqarorlashtirish, kambag'allikning turli shakllarini tarqalishini oldini olish, kambag'allikni qisqartirish, turli jamiyatlarda sodir bo'lgan transformatsiya va modernizatsiya jarayonlarida aholini kambag'allikka tushib qolishini oldini olish yuzasidan turli fan namoyondalari tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Islom dinning muqaddas kitobi Qur'oni karimda zakot so'zi o'ttiz martadan ortiq kelgan. Islom dinida yilida bir marta o'z mablag'ining ma'lum bir qismini zakot sifatida kambag'allarga, qashshoqlarga va muhtojlarga berishi ta'kidlangan³. Motrudiy maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiyning "Usulul fiqh" asarida kambag'allar mulkdorlar boyligining bir qismini olish huquqini mulkchilik huquqiga kiritgan. Kambag'allar va qashshoqlar boylar mulkidagi ulushlari bo'lmish zakotni oladilar⁴ deb shariat qonunlariga kiritgan. Alisher Navoiyning kambag'allikdan qutilish va davlat rahbarlarining aholini kambag'allikdan qutilish haqidagi fikr va mulohazalari uning mashhur "Devoni foniy"⁵ asarida bayon etilgan. Jumladan, ushbu asarda "Kambag'allik – tuzoq, kishan bo'lib, undan qutilish mehnati ham kishan mashaqqati kabidir. Shunday bo'lsa ham birovga qaram bo'lib qolmay deb keldim" degan iboralar uchratish mumkin.

G'arb mumtoz sotsiologiya namoyondalarining sotsial qarashlarida kambag'allik har doim dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Jumladan, O.Kont, E. Dyurkgeym, M.Veber, P.Sorokin, T.Parsons, R.Bendiks, S.Lipset, R.Merton, E.Giddens va G.Spenser, siyosiy-iqtisodiy fanlar namoyondalaridan A.Smit, T.Maltus, E.Reklyu. T.Xamfri Marshall va F.fon Xayeklar kambag'allik an'anaviy jamiyatni sanoatga aylantirishning muqarrar natijasi deb hisoblashgan. Ular jamiyatda kambag'allik muntazam yuz berishini va kambag'allikni qisqartirishda

³ Matar N. №. I. Islam for Beginners. New York, London, 1997. P. 53

⁴ Ziyodov Sh. Abu Mansur al-Moturidiy va uning "Kitob at-Ta'vilot" asari. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2009. – B.78-79.

⁵ Navoiy A. Devoni foniy (davomi); Qasidalar; Mufradot; Ilovalar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2003. – B.138-139.

sotsial omillarga e'tibor berish zarurligini va kambag'allikni qisqartirishga e'tibor berish jamiyatda shaxsni to'g'ri shakllantirish va rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar. MDH davlatlari tadqiqotchilaridan kambag'allik bilan bog'liq masalalarni olib borishda Arxangelskaya N. Axmadeev L. Bachurin A. Belozerova S. Bondarenko L. Burlakova Ye.V. Vavilina N.D. Varvus S.A. Ivanov N, Goffe N.larning kambag'allik va aholining boshqa ijtimoiy muammolarini o'rganish borasidagi ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga erishgan⁶.

O'zbekistonda aholi turmush darajasini ko'tarish va aholining stratifikatsion jarayonlaridagi tabaqalanishini hamda aholining kambag'al qatlamini sotsiologiya fani nuqtai nazaridan o'rgangan olimlaridan N.Egamberdieva, A.Umarov, A.Xolbekov, M.Bekmurodov R.A.Ubaydullaeva, M.Ganieva, T.Matibaev, Sh.Sodiqova N.Aliqorievlar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi boshqarmalarni boshqarishda zamonaviy usullarini joriy etish, nogironligi bor bolalarni tarbiyalanayotganligi sababli kambag'allik chegarasiga kelib qolgan oilalar uchun yangi pedagogik texnologiyalarning tanlab olingan usullari, aholining ijtimoiy va madaniy ongini rivojlantirishda mutolaaning o'rni, Sharq va G'arb sotsiologiyasida ijtimoiy tabaqalanish, aholining turmush darajasini baholash va reyting usulida tahlil qilishda jamoatchilik fikrini o'rganishning o'rni aholining ehtiyojmand qatlamini, shuningdek, kambag'alligi tufayli og'ir hayotiy vaziyatga tushgan aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish texnologiyalari, kambag'allikni qisqartirishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan ijtimoiy hamkorlik, islohotlar davrida yolg'iz yoki yolg'iz yashovchi keksalarni kambag'allik va qashshoqlikdan himoya qilish masalalarini o'rganganlar. Iqtisodiyot fanlari nuqtai-nazaridan esa R.Xasanov, kambag'allik muammosi, mohiyati va omillarini aniqlash masalalarini, Sh.Mustafaqulov kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilish masalalarini, X.Abduraxmanov oilaning demografik rivojlanish tendensiyalarini baholashni ilmiy o'rgangan⁷.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy usullaridan foydalanish, aholini ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy tabaqalashtirishlar, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini ta'minlash tadqiq etilgan bo'lsada, kambag'allikning sotsial omillari etarli darajada o'rganilmagan. Bu esa, dissertant tomonidan mazkur mavzuni tadqiqot predmeti sifatida ilmiy o'rganishga undadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2018-2020 yillarga mo'ljallangan PZ-2017093020 "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

⁶ Архангельская Н. Ловушки бедности.: Эксперт.- № 16.12.02.2010г.- с.2-5.

⁷ Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi aholi orasida kambag'allikka ta'sir etuvchi sotsial omillarni aniqlash orqali oilalar kambag'alligini qisqartirishga ko'maklashuvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aholi kambag'allik darajasini tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslarini, jamiyat sotsial stratifikatsiyasida tengsizlik va kambag'allik mezonlarini tahlil qilish, Sharq mutafakkirlarining kambag'allikni qisqartirish borasidagi yondashuvlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

kambag'allikni tuzilishi va kambag'allikni o'lchash hamda qisqartirishda jahon tajribasini va metodlarini yoritish, ijtimoiy islohotlar oilalar kambag'alligini qisqartirishning drayveri ekanligini ilmiy nazariy asoslantirish;

O'zbekistonda shahar va qishloq oilalari kambag'alligini sotsiologiya fani nuqtai-nazaridan baholashning o'ziga xos xususiyatlari va usullarini ilmiy tahlil qilish;

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonlarini amaliy sotsiologik tadqiqotlar orqali ochib berish;

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga ijobiy ta'sir etuvchi sotsial omillarni kambag'allikni qisqartirishga oid ilmiy asoslantirilgan xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti Kambag'allik chegarasida va undan pastda bo'lgan oilalarni va aholi qatlamini kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial omillar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy tahlil, hujjatlarni tahlil qilish, intervyu, anketali so'rovnoma, ekspert so'rovi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

yoshlarda mehnat madaniyati talablarini singdirishda oila va mahallada ijtimoiy nazoratning tashkil etilishi natijasida shaffoflikni ta'minlovchi maqsadli dasturlar doirasida bandlikni erta o'zlashtirilishi sotsiologik asoslangan;

jamiyat barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir etuvchi mehnat bozoridagi faol siyosat, mehnat sharoitining yaxshilanishi, ijtimoiy imtiyozlar, manzilli ijtimoiy himoya dasturlari, sog'lom turmush tarzini qamrab oluvchi sotsial omillar aniqlangan;

jamiyat sotsial strukturasi o'rta sinf qatlamini shakllantirishni mulk va daromad, kasb va ta'lim darajasi, millati va diniy mansubligi, siyosiy moyilligi, jinsi va yoshi, yashash joyi va geografik hududlarni hisobga olib optimallashtirilishi sotsiologik asoslantirilgan;

kambag'allikni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy yordam oluvchilar toifasi farzandlarining ta'lim olishi, sotsial himoyasini samarali ta'minlashga yo'naltirilgan qo'shimcha aqliy va jismoniy mashg'ulotlarni olib borishida ijtimoiy volonterlar tizimini "mahalla yettiligi"da yo'lga qo'yilishi sotsiologik asoslantirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sotsiologik tadqiqotlar asosida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish jarayonlariga ta’sir etuvchi sotsial omillar ochib berilgan;

O‘zbekistonda shahar va qishloq aholisi kambag‘alligini holatining holati va dinamikasi tahlil qilingan;

jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangi rivojlanish bosqichida kambag‘allikni qisqartirish jarayonida ishtirok etuvchi davlat organlari, davlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan milliy sotsiologik model konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomaning validligi (ishonchliligi) har bir tadqiqot va shakli mazmunidan kelib chiqib, anketada nazorat savollari qo‘yilib, ikki bosqichli qayta so‘rov hamda yakuniy ekspert so‘rovlari o‘tkazilgan, umumiy natijalarni ekspert so‘rov natijalari bilan qiyoslash orqali yakuniy xulosaga erishilgan, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish, davlat boshqaruvi organlari, banklar, tadbirkorlik faoliyati, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari va muassasalari hamda jamoat birlashmalari uchun tavsiyalar ishlab chiqishda manba sifatida foydalanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida “Boshqaruv sotsiologiyasi”, “Kambag‘allikni qisqartirishning sotsial texnologiyalari”, “Demografiya va inson kapitali”, “Ijtimoiy siyosat”, “Iqtisodiyot sotsiologiyasi”, “Oila sotsiologiyasi”, “Mehnat va bandlik sotsiologiyasi” kabi o‘quv fanlariga darslik, o‘quv qo‘llanmalar va uslubiy tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning sotsial omillari bo‘yicha tadqiqot natijalaridan:

yoshlarda mehnat madaniyati talablarini singdirishda oila va mahallada ijtimoiy nazoratning tashkil etilishi natijasida shaffoflikni ta’minlovchi maqsadli dasturlar doirasida bandlikni erta o‘zlashtirilishi sotsiologik asoslantirilganligiga oid ma’lumotidan O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi deputatlari tomonidan QL-758 raqamli “Ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasining 11 va 12-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining 2022 yil 30 martdagi 01-01/91-son ma’lumotnomasi). Natijada Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi a’zolari tomonidan kambag‘allikni

qisqartirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishda, shuningdek, partiya ustavi va saylovoldi platformasini ishlab chiqishda metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

jamiyat barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir etuvchi mehnat bozoridagi faol siyosat, mehnat sharoitining yaxshilanishi, ijtimoiy imtiyozlar, manzilli ijtimoiy himoya dasturlari, sog'lom turmush tarzini qamrab oluvchi sotsial omillar aniqlangan va ushbu ma'lumotlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish siyosatini yuritish va hududlarni kompleks rivojlantirish departamentlari faoliyatida foydalanish uchun qabul qilindi;

jamiyat sotsial strukturasi o'rta sinf qatlamini shakllantirishni mulk va daromad, kasb va ta'lim darajasi, millati va diniy mansubligi, siyosiy moyilligi, jinsi va yoshi, yashash joyi va geografik hududlarni hisobga olib optimallashtirilishi sotsiologik ochib berilganligidan "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi faoliyatida tadqiqot ishlarida foydalanilgan. Dissertant tomonidan taklif qilingan ushbu maxsus modifikatsiyalashtirilgan so'rovnoma anketasi tadqiqot o'behti va predmetiga nisbatan tadqiqot metodikasi va texnikasini to'g'ri qo'llanishi va muammoni tog'ri to'g'ri taxlil qilishda o'z samaradorligini ko'rsatdi va Markaz faoliyatiga joriy qilindi;

kambag'allikni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy yordam oluvchilar toifasi farzandlarining ta'lim olishi, sotsial himoyasini samarali ta'minlashga yo'naltirilgan qo'shimcha aqliy va jismoniy mashg'ulotlarni olib borishida ijtimoiy volonterlar tizimini "mahalla yettiligi"da yo'lga qo'yilishi orqali shaxsning kambag'allikdan o'rta sinfga o'tkazish intensivligini ta'minlovchi sotsial mexanizm ishlab chiqilgan.

Ushbu yangilik O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Kambag'allikni qisqartirish siyosatini yuritish departamenti taxlil materiallar va davriy hisobotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan.

Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy-amaliy anjumanlar hamda 2 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, (shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda) ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 7 ta maqola (shundan 3 tasi xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsion tadqiqotning asosiy matni 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot metodlari keltirilgan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, olingan

natijalarning ishonchliligi, aprobatyasi, e’lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Kambag’allik mohiyati va kambag’allikni qisqartirishning nazariy metodologik jihatlari**” deb nomlangan birinchi bobida kambag’allikning mohiyati va kambag’allikka turli fanlar nuqtai-nazaridan berilgan ilmiy ta’riflar atroflicha tahlil qilingan. Kambag’allikni ilmiy tadqiq qilishning nazariy va metodologik asoslar, hamda kambag’allik va qashshoqlikni belgilashdagi turli yondashuvlar hamda aholi kambag’allik darajasini tadqiq etishda bir qancha nazariyalar tahlil qilingan.

Kambag’allik – har qanday zamonaviy jamiyatda uchraydigan o’ziga xos bir sotsial hodisadir. Bu o’zida bir qancha sotsiologik tushunchalar va tamoyillarni mujassam etgan global ko’rinishdagi ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Kambag’allik jamiyat a’zolarining iqtisodiy holatidagi farq sifatida har doim insoniyat tarixida ijtimoiy holatning hamrohi bo’lib kelgan.

XIX asrning o’rtalarida Yevropada rivojlangan sotsial-darvinizm yo’nalish vakillari M.Veber, G.Spenser, F.Giddings, J.Prudonlar kambag’allikni ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy jarayoni oqibati deb hisobladilar va uni ijobiy baholaganlar va kambag’allik shaxsning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuch deb hisobladilar. Ularning konsepsiyasi bo’yicha kambag’allik mutlaq va nisbiy kambag’allikka bo’linadi.

1.3.1-rasm

1-rasm Kambag’allikni belgilash va o’lchash konsepsiyasi

Kontsepsiyasi	Mutloq kambag’allik	Nisbiy kambag’allik	Iqtisodiy qaramlik darajasi
Holati	Ehtiyoji	Tengsizlik darajasi	Qaramlik
Kambag’allik tushunchasi	Asosiy ehtiyojlarni ta’minlash uchun daromadning etishmasligi	Umumiy qabul qilingan yashash sharoitlarini saqlab qolish uchun resurslarning yo’qligi yoki yetishmasligi	O’z-o’zini ta’minlay olmaslik
Kambag’allik kategoriyasi	Daromadlari yashash minimumidan past bo’lgan shaxslar	Daromadlari jamiyatda erishilgan farovonlik darajasidan orqada qoladigan odamlar	Har qanday turdagi ijtimoiy yordamni muayyan vaqtda olgan shaxslar
Kambag’allik chegarasi	Minimal yashash minimumi. Minimal ehtiyojlar eng kam iste’mol stavkalarini ekspert baholashlari va ularni aholining quyi qatlamlari iste’mol savati bilan taqqoslash asosida hisoblanadi.	Mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga qarab, aholi jon boshiga o’rtacha daromadning 30 dan 70% gacha bo’lgan ijtimoiy minimum	Davlat tomonidan rasman belgilangan bazaviy hisoblash miqdori (kambag’allik chegarasi): mutlaq yoki nisbiy ko’rsatkichlarda
Qashshoqlik chegarasi	Fiziologik mavjudlik minimumni ham ta’minlay olmaydigan shaxslar	Jamiyatdan ajralgan holda yashash	Davlat tomonidan ro’yxatga olinmagan shaxslar
Sabablar va omillar	Individning xususiyatlari	Ijtimoiy tizimning xususiyatlari	Individning xususiyatlari

Turli fanlarda kambag'allik va boylikni ta'rifi va uning chegaralari aniq ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, sotsiologiya fani nuqtai-nazaridan kambag'allik tushunchasi bir muncha farqli ravishda ta'riflanadi.

Dissertant yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, kambag'allikka doir qarashlar evolyusiyasini belgilovchi eng muhim omillar jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va undagi demokratik jarayonlarning rivojlanishiga bog'liq deb xisoblaydi. Minimal ehtiyojlar toifasi va shunga mos ravishda kambag'allik tushunchasi doimo nisbiy bo'lib, iqtisodiyot va fuqarolik huquqlarining rivojlanishi bilan o'zgaradi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatning barcha a'zolari uchun huquq va imkoniyatlar tengligini ta'minlashning ahamiyati qanchalik ko'p amalga oshirilsa, minimal maqbul deb tan olingan inson ehtiyojlari doirasi shunchalik keng bo'ladi deb xisoblaydi.

Ushbu bobda, kambag'allikni ijtimoiy muammo sifatida tan olgan va uni davlat siyosati va qonun darajasida hal qilish amaliyoti birinchi bo'lib, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi diniy falsafiy ta'limotlarda va Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish natijasida aytish mumkinki, G'arb mamlakatlariga qaraganda ancha oldinroq deyarli, X asrlarda Sharq mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish, kambag'allarga yordam berishning turli mexanizmlari ishlab chiqilganligi nazariy asoslantirilgan.

Buyuk Britaniyada turli davrlarda qabul qilingan "Nochorlarga yordam berish to'g'risida"gi, "Kambag'allar to'g'risida"gi va "Kambag'allik to'g'risidagi qonunni Angliya va Uelsda takomillashtirish va samarali qo'llash to'g'risi"dagi qonunlari 300 yil davomida Angliyada kambag'allikni qisqartirish ma'lum darajada xizmat qilgan.

Demak, kambag'allik dunyoning turli mamlakatlarida qay daraja rivojlanganligiga qaramasdan aholi orasida ko'p uchraydigan ijtimoiy hodisa bo'lib, kambag'allik sotsiologiya fanida aniq tushuncha va tamoyil ega global ko'rinishdagi ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Kambag'allik jamiyatdagi insonlarning iqtisodiy jihatdan bir biridan farq qilganligi bois har doim ijtimoiy holat bilan birga o'rganilib kelinmoqda.

Dissertatsiyaning **"Kambag'allikni qisqartirishning o'ziga xos xususiyatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida, kambag'allikni belgilash va kambag'allikni o'lchashda xalqaro tashkilotlar tajribasi o'rganilgan, jumladan jahon mamlakatlarida kambag'allar sonini qisqartirishning ikki yo'li tan olingan bo'lib, birinchisi iqtisodiy rivojlanish orqali bo'lsa, ikkinchisi samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali kambag'allik qisqartirilgan.

XX asrning yigirmanchi yillarida xususiy tadbirkorlikni jadallik bilan rivojlanishi hisobiga mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiy etishi va kambag'allikdan chiqish yo'li sifatida qaralgan.

Jahon bankinging ma'lumotlariga qaraganda hozirgi kunda bir kunlik ya'ni 24 soat ichida 1,90 AQSh dollaridan kam daromadga ega bo'lgan insonlar kambag'al deb hisoblanadi. Kambag'allikni global ko'rinishlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin. 1990 yillarda dunyo bo'yicha kambag'al deb hisoblangan odamlar soni 1,9130 milliard 35.9%ni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 696 million 9.3%ni tashkil

qilgan⁸. Kambag'allik muammosi va uni qisqartishga doir bilimlarni va turli ma'lumotlarni tahlil qilish uchun avvalo, kambag'allikni global ijtimoi-iqtisodiy muammo sifatida qaragan va kambag'allikni bartaraf etishda davlat siyosatini maxsus dastur orqali amalga oshirgan davlatlarning tajribalarini o'rganish lozim.

Kambag'allik o'z tabiatiga ko'ra nisbiy va ko'p o'lchovli tushuncha bo'lganligi sababli hozirgi zamonaviy dunyoda o'lchovlarni formula bilan o'lchash amaliyoti joriy qilingan, bunga "Jini koeffitsient (Adolat indeksi yoki Jini indeksi)" va "Teyla indeks" o'lchovlarini keltirib o'tish mumkin. Jahon mamlakatlaridagi stratifikatsion jarayonlar, tengsizlik darajasi va kambag'allik o'lchovlari Jahon banki va BMT aynan "Jini koeffitsienti" va "Teyla indeksi" formulasi asosida amalga oshiriladi.

Dunyo mamlakatlarida kambag'allik darajasini kamaytirish borasida faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish muhim hisoblanadi. Kambag'allikni belgilash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha faoliyat olib boradigan xalqaro tashkilotlardan biri bu – Birlashgan Millatlar Tashkiloti xisoblanadi. 2000 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi davlat va hukumat rahbarlarining ishtirokida "Ming yillik deklaratsiyasi"ni qabul qildi, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ko'p o'tmay "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"ni (MRM) qabul qilindi. O'ta kambag'allik va ochlikka barham berish MRMda aks ettirilganidek, "O'ta qashshoqlik va ochlikka barham berish" ikkita asosiy maqsad bilan eng yuqori ustuvor vazifaga ega bo'ldi. Birinchi maqsad xarid qobiliyati pariteti⁹ bo'yicha kuniga 1 AQSh dollaridan kam daromad bilan va ikkinchi maqsad 2015 yillar davomida ochlikdan aziyat chekayotgan aholi sonini ikki baravarga kamaytirish bo'lgan¹⁰.

Dissertantning fikricha, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyo aholisini ko'pchilik qismi kambag'allikdan aziyat chekayotgani bir muncha oldinroq tushunib etishgan. Ular o'z faoliyati davomida ko'plab mamlakatlarga gumanitar yordamlar ko'rsatish bilan birga aholisini ko'pchilik qismi kambag'allar bo'lgan davlatlar uchun kambag'allikni qisqartirish borasida maxsus dasturlar ishlab chiqqanlar.

Ushbu bobda O'zbekistonda kambag'allikni belgilash va aniqlash borasidagi ishlarning xronologik rivoji va kambag'allikni qisqartirish borasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlarning kontent tahlili yoritilgan bo'lib, jumladan O'zbekistonda kambag'allikni belgilash va aniqlash borasidagi ishlar 2017 yilda faol fazadagi ishlar boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi etarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu

⁸ World data lab 2022. World Poverty clock at \$1.90 a day (2022). URL: <https://worldpoverty.io/headline>

⁹ Xarid qobiliyati pariteti nazariyasiga ko'ra, hozirgi valyuta kursi bo'yicha milliy valyutaga aylantirilgan bir xil miqdordagi pul dunyoning turli mamlakatlarida transport xarajatlari va tashish cheklovlari mavjud bo'lmaganda bir xil miqdordagi tovar va xizmatlarni sotib olishi mumkin.


¹⁰ Руководство по измерению бедности. ЕЭК ООН. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк и Женева, 2017 год. – С.5.

o'ringda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim"¹¹.

O'zbekistonda kambag'allik chegaralarini belgilash 2021 yil 27 avgustdagi 544-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga muvofiq kambag'allik chegarasi jon boshiga to'g'ri keladigan bir oylik daromadi mezon qilib olinib, minimal iste'mol xarajatlar qiymati bilan belgilanadi. Minimal iste'mol xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi har yili avgust oyiga qadar minimal iste'mol xarajatlari qiymatining prognoz parametrlarini inflyatsiya kutilmalaridan kelib chiqib hisoblaydi¹².

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori asosida aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblashda "protsentil", "real iste'mol qiymati" va "target guruhlari"da o'tkaziladigan so'rovlar uchun konkret sotsiologik tadqiqot dasturi va anketasini ishlab chiqish hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga ko'maklashuvchi "SMPR" (Socialological Model for Poverty Reduction "Kambag'allikni qisqartirishning sotsiologik modeli") ishlab chiqildi va ushbu modelni amalga oshirishi zaruriyati ilmiy asoslab berildi. (1-rasmga qarang)

Rasm 1. "SMPR" (Socialological Model for Poverty Reduction, Kambag'allikni qisqartirga ko'maklashuvchi sotsiologik modeli)



¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.

¹² 2021 yil 27 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5606697>.

Shuningdek, ushbu bobda O‘zbekistonda kambag‘allik sotsial fenomen va ijtimoiy hodisa sifatida sotsiologiya fani nuqta-nazaridan o‘rganish asnosida O‘zbekistonda jamiyat tabaqalashuvi jarayonlarida yuzaga keluvchi “kambag‘allik”, “qashshoqlik”, “kam ta‘minlanganlik” tushunchalarini sotsiologik tahlil qilish orqali jamiyat tabaqalashuvida o‘rta sinf qatlamini kengaytirish zarurati ilmiy asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish jarayonlarining sotsiologik tahlili: vazifalar va istiqbol”** deb nomlangan. Mazkur bobda, kambag‘allik chegarasini belgilashda shahar va qishloq aholisining o‘ziga xos xususiyatlari hamda kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi sotsial omillar sifatida deprivatsion jarayonlar va deprivatsion omillar tizimli va qiyosiy tahlil qilingan.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va deprivatsion holatlarga barham berishda qishloq va shahar aholisining turmush darajasiga tenglashtirish kabi ijtimoiy masalalarga e‘tibor berish lozim. Shaharlarda ijtimoiy infratuzilma obyektlari sonining ko‘pligi, aholining yashashi uchun muhim bo‘lgan toza ichimlik suvi, elektr energiyasi, gaz ta‘minoti, tibbiy xizmat, ta‘lim muassasalariga qamrab olish qishloq joylariga qaraganda bir muncha imkoniyatlari kengroq, ammo, qishloq joylarida maishiy ta‘minot shahar darajasida bo‘lmasa-da, ularda muqobil yo‘llari kengroq. Bu o‘z navbatida shahar va qishloq aholisining mutlaq kambag‘allikka tushmaslik uchun asosiy sotsial omil hisoblanadi.

Shuningdek, dissertant tomonidan, ikki bosqichda sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilib, birinchi bosqich 2022 yilning iyun, iyul, avgust va sentyabr oylarida aholi daromadlari bo‘yicha bir oylik mehnatga haq to‘lashning minimal darajasi 822 000 so‘mdan kam bo‘lgan daromad ko‘ruvchi aholi orasida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti va “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning sotsial omillari” mavzusida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichda 2022 yil sentyabr-oktyabr oylarida N=30 hududlardagi bandlik, ta‘lim, tibbiyot, ijtimoiy ta‘minot, bank boshqarmalari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining boshqarma va bo‘lim boshliqlari o‘rtasida ekspertlik so‘rovi o‘tkazildi. O‘tkazilgan barcha tadqiqotlar pandemiya sababli onlayn internet orqali va telegram kanallari, telefon so‘zlashuvi orqali o‘tkazildi.


Kambag‘allikni qisqartirishga ta‘sir etuvchi sotsial omillarni aniqlash birinchi bosqichdagi sotsiologik tadqiqot uchun empirik baza sifatida N=1200, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Respublikamizning barcha viloyatlarida aholining oylik oylik daromadi 822 000 so‘mdan kam bo‘lgan aholining ijtimoiy-demografik xususiyatlari hisobga olingan holda tanlab olindi va sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. Sotsiologik so‘rovda jami 1200 nafar respondent so‘raldi, jumladan, shahar aholisi – 550 nafar (45,8%) va qishloq aholisi 650 nafar (54,2 %), erkaklar –

420 nafar (35,0%) va xotin-qizlar – 780 nafar (65,0%). So‘rov o‘tkazilgan yoshlarning yosh tuzilmasi: 18-60 yosh. So‘rovga qamrab olingan bo‘ydoqlar 138 nafar – 11,2%, oilalar 484 nafar – 42,0%, ishlovchilar 247 nafar – 18,5%, ishsizlar 84 nafar – 7,0%, o‘zini-o‘zi band qilganlar va uy bekalari 120 nafar – 10,0%, pensionerlar 102 nafar – 8,5%, nogironligi bo‘lgan shaxslar 25 nafar – 2,8% ni tashkil etgan.

Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri aholining ma‘lumotlilik darajasidir. Aholining ma‘lumotlilik darajasi va to‘liq kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lishi aholini farovon hayotga intilishi va harakatchanligini aniqlash uchun respondentlarning ma‘lumotlilik darajasi va kasbiy tayyorgarlikka ega ekanligiga o‘zlari tomonidan berilgan baholarni tahlil qilishga yo‘l ochadi. Aholini farovon hayotda yashash kelajakdagi rejalarini aniqlash uchun ma‘lumot darajasi bo‘yicha respondentlar tanlab olindi. So‘rovda umumiy o‘rta ta‘lim (maktab) darajasidagi ma‘lumotlilar 126 nafar 10,5%, o‘rta maxsus ma‘lumotlilar 483 nafar 40,3%, oliy ma‘lumotlilar (bakalavr) 320 nafar 26,6%, oliy ma‘lumotlilar (magistr) 124 nafar 10,4% ilmiy daraja va ilmiy unvonlilar 82 nafar 6,8%, hunarmandlar 50 nafar 4,2%, turli sabablarga ko‘ra umuman ta‘lim olmagan 15 nafar 1,2% respondentlar ishtirok etdi.

Gender kesimida sotsiologik tadqiqot ma‘lumot darajasida erkaklar va ayollar o‘rtasida katta tafovut yo‘qligi ko‘rish mumkin. 2020 yildagi demografik-statistik ma‘lumotlarni so‘rov natijalari bilan taqqoslaganda ayollar o‘rtasidagi ma‘lumotlilik darajasi erkalarga nisbatan 3,0%ga oshganligini aytish mumkin.


Respondentlarning ijtimoiy hayotda o‘z sotsial maqomlariga bergan baholarini tahlili umumiy hisobda 50,4% respondent o‘zlarini kambag‘al yoki kam ta‘minlangan ehtiyojmand deb hisoblaydi. 2,1% respondent nogironligi tufayli kambag‘allikka tushgan deb hisoblasalar, 15% respondent pensionerligi tufayli o‘ziga kambag‘al deb baho bergan. Doimiy ish joyiga ega bo‘lgan va umuman ish bilan band bo‘lmaganlar 9,6%ni tashkil qilgan. (3.2.1- rasmga qarang)



3.2.1-rasm

Siz hayotdagi ijtimoiy maqomingiz qanday deb bilasiz? Degan savolga respondentlarning javoblari (%hisobida)

Respondentlarning uy-joyi bilan bog'liq savollar berilganda. Ularning ko'pchiligida uy-joy bilan bog'liq muammolar borligi aniqlandi. Respondentlarga sizning yashash sharoitingiz (yashash joyingiz) deb savol bilan murojaat qilinganda ularning 30,0% i 363 nafari o'z uy-joylariga ega emasliklarini bildirgan. Aynan mana shu 30,0% respondentlarni standart kambag'allik chegarasidan pastda ekanliklarini bildiradi. Respondentlarning javoblari ekspertlarga berilgan savollarga berilgan javoblar bilan muvofiqlik darajasi 80%ni tashkil qildi. (3.2.3-rasmga qarang)



3.2.3-rasm


Sizning yashash sharoitingiz (yashash joyingiz) savoliga respondentlarning javoblari (%hisobida)

Respondentlarga mehnat bilan bandlikka oid berilgan savollarga berilgan javoblarni tahlil qiladigan bo'lsak, respondentlarning 23,8%i ishlamasliklarini bildirganlar. Ularning 76,2%i rasmiy yoki norasmiy ravishda mehnat bilan bandliklarini bildirganlar.

Ishlamaydigan respondentlar safiga pensionerlar, talabalar va boshqa mehnatga layoqatli kishilar ham kirgan. Pensionerlarning pensiyasi borligi ularni kambag'allik chegarasidan pastga tushirmaydi. Ammo stipendiya olmaydigan talabalar va mehnatga layoqatli ishlamaydigan kishilar doim oilaning yordamiga muhtoj bo'ladilar va oila a'zolarini kambag'allikdan chiqishlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Respondentlarning javoblari ekspertlarga berilgan savollarga berilgan javoblar bilan muvofiqlik darajasi 78,6%ni tashkil qildi. (3.2.4-jadvalga qarang)

3.2.4-jadvalga

Hozirgi kunda nima bilan bandsiz? degan savoliga respondentlarning javoblari (%hisobida)



Respondentlarga asosiy daromad manbalari borligini aniqlash maqsadida ular muqobil daromadlar haqida savollar berildi. Ularga oilangiz uchun barcha daromad manbalarini belgilang deb savollarni taqdim qilganimizda, respondentlarning 64,6%i asosiy ish joyidan, qo‘shimcha ishlar, tomorqa, bog‘ va chorva ishlari bilan o‘zini-o‘zi band qilish bilan bog‘liq turli daromadlarga ega bo‘lib, uzlarining kundalik ehtiyojlarini qondiradilar. Respondentlarning 29.9%i esa kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun boshqalar yordamiga yoki turli ijtimoiy to‘lovlarga bog‘lanib qolgan. Respondentlarning javoblari ekspertlari (Samarqand, Navoiy, Xorazm, Farg‘ona, Namangan, Andijon viloyatlarining bandlik, ijtimoiy ta‘minot boshqarmalari, Ipoteka bankining viloyat boshqarmalari boshliqlari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish boshqarmalari boshliqlari)ga berilgan savollarga berilgan javoblar bilan muvofiqlik darajasi 91%ni tashkil qildi.

Respondentlarga ularning bir oylik daromadlarini qanday taqsimlashlariga va asosiy xarajatlar uchun qancha mablag‘ etmasligiga doir savollar berildi. Umumlashtirilgan javoblarda 822 000 so‘m daromadga ega bo‘lgan shaxslarning o‘rtacha bir oylik xarajatlarning umumiy summasini aniqlash orqali ulardagi ba‘zi bir ijtimoiy muammolar borligi aniqlandi. Respondentlarning oziq-ovqat sotib olishga bir oylik xarajatlari 380 ming so‘m, kiyim-kechak sotib olishga 222 ming so‘m, ijarada yashayotgan 153 nafar respondentlar 250 ming so‘m, uy-joyga ega bo‘lgan 837 nafar respondentlar uy-joy kommunal xizmatlar uchun 100 ming so‘m, 99 nafar nogironligi bor shaxslar, pensionerlar va turli nafaqa oladigan ijtimoiy kasallik bilan kasallangan shaxslar tibbiy xizmatlar va dori-darmonlarga 364 ming so‘m, 484 nafar oilali respondentlar bollarini maktabgacha ta‘lim tashkilotiga, qo‘shimcha ta‘limga va oilani bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga 646 ming so‘m xarajat qilishlarini bildirganlar. O‘z navbatida bunday holat kambag‘allikni qisqartirishda sotsial omil sifatida ta‘sir qiladi. (3.2.2-jadvalga qarang),


3.2.2-jadval

Siz bir oylik daromadingizni nimalarga sarflaysiz? va Sizing bir oylik xarajatlaringizga qancha etmaydi?

